



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 130 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</i>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
<i>Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</i>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
<i>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	33
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
<i>Davlatova Zebo Haydarovna</i>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
<i>Ochilova Farida Baxriddinovna</i>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari	44
<i>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</i>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<i>Sevara Mamatkarimova</i>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<i>Курбанова Шаира Исмаиловна</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari	63
<i>Muminova Feruza Farxodovna</i>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati	70
<i>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
<i>Saidova Dilnoza Maripovna</i>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<i>Дмитрий Валерьевич Пупонин</i>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
<i>Муксинова Динора Азаматовна</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
<i>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</i>	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar	92
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
N. R. Masharipova	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
Pardayeva Aziza Rahmatilloevna	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	119
Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi	124
Ubaydullayeva Komila Bozor qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi	127
Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna	



GRAMMATIK TUSHUNCHALARNI O'RGATISH METODIKASI



N. R. Masharipova
TAFU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

orcid: 0009-0007-0340-4448

Annotatsiya: Grammatika tilni to'g'ri va samarali qo'llashning asosiy poydevoridir. Grammatik tushunchalarni o'rgatish jarayoni nafaqat qoidalarni yod oldirish, balki o'quvchilarda tilni ongli ravishda tushunish va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada grammatik tushunchalarni samarali o'rgatishning muhim jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: grammatika, grammatik tushuncha, gamifikatsiya, induktiv metod va yondashuvlar.

Abstract: Grammar is the foundation for the correct and effective use of language. The process of teaching grammatical concepts involves not only memorizing rules, but also developing students' skills in consciously understanding and using language. This article will highlight important aspects of effective teaching of grammatical concepts.

Key words: grammar, grammatical concept, gamification, inductive methods and approaches.

Аннотация: Грамматика является основной основой для правильного и эффективного использования языка. Процесс обучения грамматическим понятиям включает в себя не только запоминание правил, но и развитие у учащихся навыков осознанного понимания и использования языка. В данной статье освещаются важные аспекты эффективного обучения грамматическим понятиям.

Ключевые слова: грамматика, грамматическое понятие, геймификация, индуктивные методы и подходы.

KIRISH

Respublikamizda barcha sohalarda bo'layotgani kabi davlat tilining o'rni va nufuzini oshirish borasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimiga, xususan o'zbek tilini rivojlantirish, davlat tili sifatidagi mavqeyini ko'tarishga qaratilgan e'tibor buning yorqin isbotidir. Hozirgi yosh avlod uchun bugungi kun o'qituvchisi davlat va jahon miqyosidagi o'qitish tizimlaridan boxabar bo'lishi, yangi orginal o'qitish uslublariga ega bo'lishi bugungi kun talabidir.

Ushbu talabdan kelib chiqqan holda dars jarayonlarini tashkil etish, o'quvchilarga grammatik, imlo, talaffuz qoidalarini puxta singdirish, yozma nutqni mazmundor va rang-barang, fikrni ravon va izchil, xatosiz yoza olishda ko'nikma va malakalarni egallash asosiy vazifani tashkil etadi.

Yuqorida ko'rsatilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishda tilga oid bilimni puxta o'rganmoq zarurdir, chunki "Har qanday til ta'limida tilning uslublari haqidagi bilimlarni chetlab o'tish mumkin emas. Tilni o'zlashtirishda til qurilishini bilish shart, bu boradagi bilimlar asosdir. Ammo ayni qurilish birliklaridan qanday foydalanish, ularni nutqda bevosita qanday qo'llash malakasi shakllanmagan bo'lsa, tilni bilishni tugal deyish mushkul" [1].

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Grammatika til tizimining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u til birliklarining tuzilishi, o'zaro bog'lanishi va qo'llanish qonuniyatlarini o'rganadi. Grammatik tushunchalarni o'rgatish o'quvchilarda to'g'ri nutq tuzish, fikrni aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli bu jarayon puxta rejalashtirilgan metodik yondashuvni talab qiladi.

Ona tili ta'limidagi asosiy o'quvchiga o'rgatiladigan vosita nazariy bilim, ya'ni grammatik tushuncha hisoblanadi. Grammatik tushuncha - bu til birliklarining (so'z, so'z birikmasi, gap) tuzilishi va ularning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini ifodalovchi nazariy bilimdir. Masalan, so'z turkumlari, gap bo'laklari, zamon shakllari kabi



mavzular grammatik tushunchalarga kiradi. Grammatik tushunchalarni o'rgatishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir. "An'anaviy metodlar ko'pincha passiv o'qitishga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning faoliyatini cheklaydi" [2].

Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda induktiv metodlar va o'yin texnologiyalari (gamifikatsiya) [3] o'quv jarayonini boyituvchi vosita sifatida keng qo'llanmoqda. O'quvchilarni ongli fikrlashga o'rgatish muammolari yuzasidan ilmiy-izlanishlar bir qator olib borilgan. O'quvchilarning ongli fikrlash malakalarini takomillashtirish imkoniyatlari ona tili o'qitishning hamma bosqichlarida, har bir darsda kuzatilishi haqida metodist olim A.G'ulomov ta'kidlab o'tgan:

- bilib olish kerak bo'lgan har bir grammatik hodisaning eng muhim belgilari haqida xulosa chiqarilganda;
- til hodisalarini o'rgana borib, grammatik shakllarni toifaviy belgilariga ko'ra bir-biridan o'zaro farqlashda, guruhlashda;
- mashqlar bajarish orqali so'z, so'z shakli, so'z birikmasi va gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini ajrata boshlaganda [4].

Qoidani o'rgatishda quyidagilarni tavsiya bergan bo'lardik:

1. O'quvchilarga o'z atrofida ko'rgan hayotiy misollar orqali tushuncha berish va keyinchalik qoidalarga o'tish;
2. Qoidani faqatgina tushuntirish yetarli emas, uni topshiriqlar, matnlar va real nutqiy vaziyatlar orqali mustahkamlash;
3. O'quvchilar qoidani tezroq anglashlari uchun diagramma, jadval, sxemalar va misollardan foydalanish;
4. Mustaqil ravishda gap tuzish, xatolarni toppish va tahlil qilish orqali bilimlarni yanada mustahkamlash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Grammatik tushunchalarni o'rgatish murakkab, ammo tizimli yondashuv orqali samarali amalga oshiriladi. Nazariya va amaliyot uyg'unligi, interaktiv metodlardan foydalanish va individual yondashuv orqali o'quvchilar grammatikani chuqur o'zlashtiradilar. Natijada ular o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va ravon ifodalay oladigan shaxslar sifatida shakllanadi. Grammatik tushunchalarni o'rgatish murakkab, ammo muhim jarayondir. To'g'ri, metod va yondashuvlar tanlanganda, o'quvchilar nafaqat qoidalarni bilib oladilar, balki ularni amaliy nutqda ham to'g'ri qo'llay boshlaydilar. Shuning uchun o'qituvchi ijodkor, sabrli va zamonaviy usullardan xabardor bo'lishi zarur.

"Qoidani kashf qil!" interaktiv metodining tavsifi

Grammatik tushunchalarni o'rgatishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar tizimi muhim hisoblanadi. Shulardan biri sifatida "Qoidani kashf qil!" metodini keltirish mumkin. Ushbu metod induktiv o'qitish usuli hamda o'yin texnologiyalari (gamifikatsiya) elementlariga asoslangan. Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi [5], ya'ni o'quvchilarning til hodisalarini kuzatish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodning mohiyati shundan iboratki, o'quvchilarga tayyor qoida berilmaydi, balki ular maxsus tanlangan misollar asosida grammatik qonuniyatni o'zlari aniqlaydilar. Jarayon o'yin (detektiv) shaklida tashkil etilib, o'quvchilar faol ishtirokchi sifatida jalb etiladi.

Metodning bosqichlari:

Motivatsiya bosqichi - O'quvchilarga muammoli yoki qiziqarli vaziyat taqdim etiladi. Ular "til detektivlari" sifatida faoliyat boshlaydilar.

1. **Kuzatish bosqichi** - O'quvchilarga grammatik hodisani ifodalovchi bir nechta gaplar yoki misollar beriladi.
2. **Tahlil bosqichi** - O'quvchilar misollarni solishtiradi, farqli va o'xshash jihatlarni aniqlaydi.
3. **Xulosa chiqarish bosqichi** - O'quvchilar o'z fikrlariga tayangan holda grammatik qoidani shakllantiradilar.
4. **Mustahkamlash bosqichi** - Turli mashqlar va o'yinlar orqali olingan bilimlar mustahkamlanadi.
5. **Qo'llash bosqichi** - O'quvchilar yangi bilimlarni mustaqil nutqda qo'llaydilar.

Mazkur metod an'anaviy induktiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda o'yin texnologiyalari elementlari integratsiya qilindi. Natijada grammatik qoidalarni o'rganish jarayoni qiziqarli va samarali shaklga keltirildi hamda o'quvchilarning bilish faolligi oshirildi.

Metodning afzalliklari:

- o'quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi;
- dars jarayoni interaktiv tus oladi;
- grammatik tushunchalar ongli o'zlashtiriladi;
- o'quvchilarda motivatsiya kuchayadi.

“Qoidani kashf qil!” interaktiv metodi grammatik tushunchalarni o'rgatishda samarali vosita bo'lib, u o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

“Taqlid so'zlardan turli qo'shimchalar orqali fe'l yasash mumkin: shildira, jiringla, ho'ngra, yarqira, g'izilla, shovulla. Bunday fe'llar holat tovushga aloqador harakat-holatni ifodalaydi. Bir holatni ta'sirli ifodalashda taqlidlar fe'llardan ko'ra biroz ustun sanaladi.

Qiyoslang: ho'ngrab yig'lamoq – ho'ng-ho'ng yig'lamoq, lapanglab yura ketdi – lapang-lapang yura ketdi ^[6]. 6-sinf darsligi asosida Taqlid so'zlar mavzusi asosida induktiv metod quyidagicha foydalanish mumkin.

1. Kuzatish bosqichi (misollar beriladi)

O'qituvchi quyidagi gaplarni beradi:

1. Eshik g'iyq etib ochildi.
2. Osmonda momaqaldiroq gumbur-gumbur ovoz chiqardi.
3. Qushlar chirq-chirq sayray boshladi.
4. Bola kulib qah-qah yubordi.

2. Tahlil bosqichi (savollar orqali yo'naltirish)

O'quvchilarga savollar:

1. Ajratilgan so'zlar nimani bildirayapti?
2. Ular qanday tovush yoki holatni ifodalayapti?
3. Bu so'zlar qanday paydo bo'lgandek tuyuladi?

3. Umumlashtirish (o'quvchi qoidani chiqaradi)

O'quvchilar xulosa qiladi: Bu so'zlar turli tovushlarga yoki harakat-holatga taqlid qilib hosil bo'lgan.

4. Qoida (rasmiy shakl)

Taqlid so'zlar - tovushlarga yoki harakat-holatlarga taqlid qilib hosil bo'lgan so'zlardir.

Metodning mohiyati shuki:

1. Avval misollar orqali kuzatish
2. So'ng tahlil qilish
3. Oxirida qoida o'quvchi tomonidan kashf etiladi

XULOSA

Grammatik tushunchalarni o'rgatish murakkab, ammo tizimli yondashuvlar orqali samarali amalga oshiriladi. Nazariya va amaliyot uyg'unligi, interaktiv metodlardan foydalanish va individual yondashuvlar orqali o'quvchilar grammatikani chuqur o'zlashtiradilar. Natijada ular o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va ravon ifodalay oladigan shaxslar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. Til ta'limi va stilistika // J. Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2009. – 1-son. – B. 3-9.
2. Komenskiy, Y.A. Didaktika: Umumiy ta'lim nazariyasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991.45–50 b; Dewey, J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938., 20–28 b.
3. Gamifikatsiya va interaktiv ta'lim texnologiyalari, 2015, s.34–42; Ellis, 1994, 210–220 b.
4. G'ulomov A, Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:Universitet, 2001,-221 b.
5. Qosimova K. va boshqalar, Ona tili o'qitish metodikasi, toshkent-2009, 208 b.
6. ONA TILI Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik, Yangi nashr Toshkent-2022, 191-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.